

**MAXSUS IQTISODIY ZONA, KICHIK SANOAT ZONA, TEXNOPARK
ISHTIROKCHISI BO'LGAN TASHKILOTLAR VA KLASTERLAR
FAOLIYATI TO'G'RISIDA STATISTIKA HISOBOTI**

Taqdim etmaslik oqibatlari

Mansabdor shaxslarning davlat statistika kuzatuvini olib borish uchun zarur bo'lgan hisobot va boshqa ma'lumotlarni taqdim etmaslikda ifodalangan statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzishi, hisobot ma'lumotlarini buzib ko'rsatishi yoki hisobotlarni taqdim etish muddatlarini buzishi O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining **215-moddasida** belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Qanday taqdim etiladi

Statistika hisobotlari, internet jahon axborot tarmog'i vositasida statistika hisobotini elektron shaklda yig'ish axborot tizimi **e-Stat** orqali elektron raqamli imzodan foydalangan holda taqdim etiladi. **e-Stat** avtomatlashtirilgan axborot tizimida mavjud bo'lgan statistika hisobotlarining elektron shaklini (namunasini) O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining www.hisobot.stat.uz rasmiy saytidan olishingiz mumkin.

Ma'lumotlar xavfsizligi kafolatlanadi

O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunining **32-moddasiga** muvofiq, axborot xavfsizligi va ma'lumotlarning maxfiyligi kafolatlanadi.

Kimlar taqdim etadi

Taqdim etadilar	Taqdim etish muddati	4 MIZ (12 korxonalar shakliga ilova)
Erkin iqtisodiy zona, maxsus ilmiy-texnologik zona, turistik- rekreatsion zona, erkin savdo zonasi, maxsus sanoat zonasi, kichik sanoat zonasi, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari, texnopark ishtirokchisi bo'lgan yuridik shaxslar, klasterlar, ularning alohida bo'linmalari.	hisobot davridan keyingi oyning 20-sanasidan kechiktirmay	Choraklik

Statistika hisobotini taqdim etish muddatining so'nggi kuni dam olish yoki bayram (ishlanmaydigan) kuniga to'g'ri kelsa, undan keyin keladigan birinchi ish kuni muddat tugaydigan kun deb hisoblanadi.

Korxonalar rekvizitlari

Hisobot davri	oy	yil
---------------	----	-----

STIR	KTUT	Korxonalar nomi	IFUT kodi	Rahbar telefon raqami

**1. Tashkilotning yuridik manzili
(ro'yxatdan o'tgan manzili)**

	Nomi	MHOBT kodi
Hudud		
Tuman (shahar)		
MFY		
Manzil		

2. Tashkilotning faoliyat yuritayotgan manzili

	Nomi	MHOBT kodi
Hudud		
Tuman (shahar)		
MFY		
Manzil		

1-BOB. UMUMIY IQTISODIY KO'RSATKICHLAR

ming so'm

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kod	Hisobot yili boshidan	Sharx
A	B	I	D
Ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) qiymati (QQS va aksizsiz)	101		Barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlarning amaldagi narxlardagi qiymati (QQS va aksizsiz) keltiriladi.
O'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi (QQSsiz), o'z ehtiyojlari uchun bajarilgan qurilish-montaj ishlari, uskuna sotib olish xarajatlari va boshqa kapital xarajatlardan tashqari	102		Kiritiladi: Korxonada tomonidan sotish uchun mo'ljallangan amaldagi narxlarda o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari qiymati kiritiladi Kiritilmaydi: 1.O'z ehtiyojlari uchun, (xo'jalik usuli bilan) bajarilgan qurilish-montaj ishlari; 2. Foydalanishga tayyor holda qurib topshirish ishlari bo'yicha bajarilgan ishlar ko'rsatilganda uskuna sotib olish xarajatlari va boshqa kapital xarajatlari; 3.Neft va gaz quduqlari uchun burg'ulash minoralarini o'rnatish; 4.Montaj va demontaj qilish ishlari; 5.Binolarning ichki qismini shakllantirmaydigan sanoat, telekommunikatsiya va hokazo uskunalarini o'rnatish ishlari hisobga olinmaydi.
Moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar	103		Kiritiladi: - yangi va import orqali xarid qilingan asosiy vositalar; - haqiqatda bajarilgan qurilish va loyiha-qidiruv ishlari harajatlari (to'lov muddatidan qat'iy nazar) hajmi; - yer holatini yaxshilash uchun xarajatlari; - geologik qidiruv ishlari; - asosiy podani shakllantirishga va ko'p yillik o'simliklarni o'tkazishga ketgan xarajatlari; - asosiy vositalar tarkibiga olinmagan, uzoq muddatga mo'ljallangan o'rnatiladigan asbob-uskunalar, kapital qo'yilmalar. Kiritilmaydi: -ilgari boshqa tashkilotlar balansida bo'lgan asosiy vosita yoki tugallanmagan qurilish qiymati; -asosiy vositalarni kapital ta'mirlash xarajatlari; - asosiy vositalarni qayta baholash orqali qo'shilgan qiymat; -noishlab chiqarish nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar.
Sotilgan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsuloti (ishlar, xizmatlar)	104		Ushbu satrni korxonada tomonidan yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini sotish bilan shug'ullangan yuridik shaxslar to'ldiradi.
Hisobot davri oxiriga xodimlar soni, kishi	105		Kiritiladi: Hisobot davri oxiriga mazkur korxonada mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar soni ko'rsatiladi. Kiritilmaydi: Tashqi o'rindoshlar, shu bilan birga, fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar asosida ishlayotganlar kiritilmaydi.
O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni, kishi	106		Kiritiladi: Mazkur korxonada mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlarning yillik o'rtacha soni ko'rsatiladi. Kiritilmaydi: boshqa tashkilotlardan o'rindoshlik bo'yicha ishga qabul qilinganlar; fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar bo'yicha ish bajaruvchilar; homiladorlik, tug'ish, farzandlikka olish va parvarish qilish bo'yicha ta'tilda bo'lgan ayollar; umumta'lim muassasalarida o'qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo'shimcha mehnat ta'tilida bo'lganlar, shuningdek ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta'tilda bo'lgan, tashkilot tomonidan, ishdan ajralgan holda, ta'lim muassasalariga yuborilgan xodimlar.
Jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar – jami	107		Tashqi o'rindoshlar, shu bilan birga, fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar asosida ishlayotgan va mazkur korxonada mehnat daftarchalari mavjud bo'lmagan boshqa xodimlarni ham qo'shgan holda hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar ko'rsatiladi. Bunda ko'rsatilgan summalar qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa ushlanmalarni chegirib tashlashsiz olinadi va Soliq kodeksining 371-moddasiga asosan shakllantiriladi.
shundan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar	108		Mazkur korxonada mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlarning mehnatga haq to'lash tarzidagi daromdlari Soliq kodeksining 371-moddasiga asosan ko'rsatiladi.
Hisobot davri oxiriga ish o'rinlari soni, o'rinlar	109		

2-BOB. SANOAT MAHSULOTI (TOVARLAR VA XIZMATLAR)

Milliy statistika qo'mitasi tomonidan belgilangan ro'yxatdan mahsulot (tovar, xizmat) nomi tanlanadi	O'lchov birligi	Mahsulot kodi (MST)	Mahsulot TIF TN kodi	Yil boshidan davr uchun o'rtacha ishlab chiqarish quvvati	Hisobot yili boshidan ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori	Hisobot yili boshidan ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar va xizmat) qiymati (QQS va aksizsiz), ming so'm
A	B	D	E	1	2	3

A va **B** ustunlarning bo'sh satrlarida yuridik shaxs tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot muayyan (aniq) turi nomi va ularning o'lchov birliklari, Milliy statistika qo'mitasi belgilagan ro'yxatga (tartibga) mos holda, mahsulotlar nomiga mos keluvchi mahsulot kodi **D** ustunda tanladi (keltiriladi).

E ustunda mahsulotning TIF TN kodi tanladi.

1- ustunda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda yil boshidan davr uchun o'rtacha ishlab chiqarish quvvati ko'rsatiladi. Yil boshidan davr uchun o'rtacha ishlab chiqarish quvvatlari - yil boshiga bo'lgan quvvatlar va o'rtacha yil boshidan quvvatlar ko'payishi yig'indisidan yil boshidan o'rtacha quvvatlarning kamayishini ayirish orqali aniqlanadi. $Mo'r = Myb + (MkkTkk / This) - (MchTchk / This)$ $Mo'r$ - yil boshidan davr uchun o'rtacha ishlab chiqarish quvvatlari; Myb — yil boshiga bo'lgan ishlab chiqarish quvvatlari; Mkk — hisobot davrida kiritilgan ishlab chiqarish quvvatlari; Mch — hisobot davrida chiqib ketgan ishlab chiqarish quvvatlari; Tkk — kiritilgan ishlab chiqarish quvvatlarining kirib kelishi davridan hisobot davri ohirigacha bo'lgan to'liq oylari; $Tchk$ — chiqib ketgan ishlab chiqarish quvvatlarining chiqib ketishi davridan hisobot davri ohirigacha bo'lgan to'liq oylari; $This$ — hisobot davrining to'liq oylari. $Ko'p$ turdagi mahsulotlarning bir xil uskunada ishlab chiqarilishi sharoitida, ishlab chiqarish quvvatlarini aniqlashda ushbu turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun mashinada (uskunada) sarflangan vaqt koeffitsientidan foydalaniladi, ya'ni ishlab chiqarish quvvatlari, barcha turdagi ishlab chiqarilgan mahsulotlar bo'yicha unga sarflangan vaqt koeffitsientidan foydalangan holda hisoblanadi.

2- ustunda aniq turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishga, o'z shaxsiy sanoat-ishlab chiqarish zaruratlariga ishlatish uchun ketgan mahsulot xarajatlarini qo'shgan holda, ya'ni (tovar ishlab chiqarishda hisobga olinadigan alohida turlarni chiqarib tashlagan holda) yalpi mahsulotlar ishlab chiqarish miqdori ko'rsatiladi.

3- ustunda barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlarning amaldagi narxlardagi qiymati (QQS va aksizsiz) keltiriladi.

3-BOB. TURLARI BO‘YICHA KO‘RSATILGAN BOZOR XIZMATLARI (QQS VA AKSIZSIZ)

Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan belgilangan ro‘yxatdan xizmatlar nomi tanlanadi	Xizmat kodi	Amaldagi narxlarda xizmatlar hajmi, ming so‘m		Sharx
		Hisobot choragida – jami	Hisobot yili boshidan – jami	
A	B	1	2	
Jami xizmatlar	301			Kiritiladi: - ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmida iste‘molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo‘shgan holda) ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi; - savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashqilotlar yalpi daromadni, ya‘ni sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati aks ettiriladi. Agar savdo faoliyatidan foyda ko‘rmagan bo‘lsa yoki zarariga sotgan bo‘lsa xizmat ko‘rsatilmaydi. Kiritilmaydi: - nobozor xizmatlar - iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan narxlar mavjud bo‘lmagan sharoitlarda (bepul asosda) iste‘molchilarga ko‘rsatiladigan xizmatlar.
shu jumladan xizmat turlari bo‘yicha:				

4-BOB. MOLIYALASHTIRISHNING BARCHA MANBALARI HISOBIDAN ASOSIY KAPITALGA INVESTISIYALAR (103-satrdan)

Qo‘yilma turi kodi ¹⁾	Moliyalashtirish manba kodi ²⁾	Chet el kreditorining kodi ³⁾	Jami asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi, ming so‘m	shu jumladan				
				mashinalar, uskunalar, transport vositalari, ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlari			qurilish-montaj ishlari	Boshqalar ⁴⁾
				Mashina va uskunalar	Transport vositalari	Boshqa ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlari		
A	B	D	1	2	3	4	5	6

¹⁾ Yangi qurilish va kengaytirish – 1; Modernizatsiya va rekonstruksiya – 2; Qurilish bilan bog‘liq bo‘lmagan – 3.

²⁾ Respublika budjeti mablag‘lari – 1; Tashkilot o‘z mablag‘lari – 2; Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi – 3; To‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalari – 4; Boshqa chet el investitsiyalari – 5; O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo‘lgan chet el kreditlari – 6; O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo‘lmagan chet el kreditlari – 7; Bank kreditlari – 8; Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi – 9; Reinvestitsiyalar – 10; boshqa manbalar – 11.

³⁾ “D” ustunida chet el investitsiyalar va kreditlari ishtirokidagi loyihalar bo‘yicha to‘ldiriladi, kodlar mos keluvchi ro‘yxatdan tanlab olinadi (B ustuni 4-5-6-7-kodlari).

⁴⁾ Intellektual mulkchilik obyektlariga investitsiyalar, neft va gaz uchun geologiya qidiruv ishlarini bajarishga xarajatlar, neft, gaz va termal suvlarni chuqur kuzatuv-burg‘ulash va foydalanish ishlari xarajatlari, ko‘p yillik o‘simliklarni ekish va o‘stirish ishlari xarajatlari, ish kuchi, oziq-ovqat va nasl uchun boqiladigan chorva xarajatlari, qayta ishga tushiriladigan obyektlarda ishlash uchun mutaxassislarni tayyorlashga ketgan harajatlar, pudrat savdo ishlarini tashkillashtirish va o‘tkazish bo‘yicha xarajatlar, fan-texnika axborotlariga moslashtirilgan kutubxonalar, arxiv, muzeylar va shunga o‘xshash muassasalarni tashkil etish xarajatlari, noinventar xarakterga ega bo‘lgan yerni yaxshilash uchun kapital xarajatlar, kelgusi yillar uchun loyiha-qidiruv ishlari.

5-BOB. TASHQI SAVDO KO'RSATKICHLARI
1-§. XIZMATLAR EKSPORTI-IMPORTI

Mamlakat	Mamlakat kodi	Xizmatlar nomi ¹⁾	Xizmat kodi	Hisob-kitob kodi	Shartnoma tuzgan xorijiy yuridik shaxslarning (norezident-kontragent) nomi ²⁾	Shartnoma raqami va sanasi	Eksport, hisobot yili boshidan		Import, hisobot yili boshidan	
							ming AQSH dollari	ming so'm	ming AQSH dollari	ming so'm
A	B	D	E	F	G	H	1	2	3	4
		Jami	501		X					

¹⁾ Tashqi iqtisodiy faoliyat xizmatlari tasnifiga asosan to'ldiriladi.

²⁾ Tashqi iqtisodiy faoliyat xizmatlari tasnifiga asosan qurilish xizmatlarini, tog'-kon sanoatiga oid va neft-gaz qazib chiqarish xizmatlarini, me'morchilik, muhandislik, ilmiy va boshqa texnik xizmatlarni import qilgan korxonalar va tashkilotlar tomonidan to'ldiriladi.

Hisobotdagi ma'lumotlar qaysi standartga asosan to'ldirilgan: agar BHMSga muvofiq bo'lsa, "1" raqamini to'ldiring, agar MHXSga muvofiq bo'lsa, "2" raqamini to'ldiring.	
---	--

Izoh: agar hisobotda ko'rsatilgan ma'lumotlar oldingi davrlarda taqdim etilgandan tubdan farq qilsa, sababini ko'rsating (hisobotni to'ldirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa sabablarni ham inobatga olgan holda).

--

Rahbar _____ ERI sertifikatining tartib raqami _____
(F.I.O.)

Sertifikatning amal qilish muddati _____

Statistika hisobotini tuzish uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxs _____
(F.I.O.) (mansabi)

Tashkilotning elektron pochta manzili _____

Statistika hisoboti elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi.